



Илмий – амалий конференция
материаллари

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

41.	Ziyodullayeva S. Nurullayeva SH.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurning rivojlanganlik daraja- sini aniqlash metodikasi	132
42.	Boimatova M. P. Faффорова T. F.	Ўқитувчи-ўқувчи муносабатлари ва ундаги зиддиятлар тавсифи	134
43.	Islomova Sh. X.,	Iboralarning nutq maqsadiga ko'ra qo'llanilishi	136
44.	Nurmatov A. Maqsadova M.	Ichki ishlar idorasi xodimlarining mehnat faoliyatiga psixologik tayyorligi masalasi	138
45.	Keldiyarova V. Opimova H.	Kreativ metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirish omili sifatida	142
46.	Ashurova C. Bezmatova H.	Мактабгача таълим муассаса- ларида компьютерли таълимий ўйинлардан фойдаланиш имко- ниятлари	145
47.	Алимардонова М. Нуруллаева Ш.	МТМ даги машғулотлар жара- ёнида болалар ихтиёрий диққати- ни шакллантириш	149
48.	Муродова З.	Методологик таъминотни яратишга доир янги педагогик ёндашувлар: мазмуни ва моҳияти	152
49.	Muxammadiyeva N., Djumayeva N.E.	Globallashuv jarayonlarida ma'na- viy madaniyat muammosi va shaxs ma'naviy madaniyatini shakllan- tirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talabi.	156
50.	Zikirova S., Djumayeva N.E.	Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik maxoratni shakllantirish yo'llari	158
51.	Qilicheva N.	Qadimgi Nasaf ziyosi	160
52.	Mirzayev S. Eshmurodov E. E.	Ta'lim samaradorligimi oshirishda modulli o'qitish jarayonining afzalliklari	164
53.	Huёзкулов М.Б.	Бошланғич синфларда математи- ка фанидан муаммоли таълимни амалга ошириш	166

QADIMGI NASAF ZIYOSI

QarDU magistranti: Qilicheva N.

Ta'lim-tarbiya nazariyasi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq rivojlangan bilim. Insoniyat tomonidan yaratilgan tajribalarni yosh avlodga o'rgatish, ularni hayotga, mehnatga, kasb-hunarga tayyorlash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik qonuniyat sifatida rivojlangan. Ma'lumki, qonuniyat barqaror takrorlanadigan voqea va hodisalarning ichki bog'liqligi, asrlar bo'yicha tajribada sinalgan ilmiy kategoriya. Ta'lim-tarbiya jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" ta'limoti asosida Abu Nasr Farobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya haqidagi merosidan foydalanish, Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Berdaq, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi muttafakkirlarning ta'lim-tarbiya haqida ta'limotlarining ilmiy-amaliy tasavvuf bilan bog'liqligi, uzluksiz ta'lim dasturlari, darsliklarga kiritildi.

Ta'lim – tarbiyaning tarixiylik qonuniyatidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „Qadimgi yozma manbalarni saqlash tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash bugungi kunda o'tmish ajdodlarimizning merosini qaytadan o'rganishga yanada keng yo'l ochib berdi. Ya'ni hozirgacha tasavvuf g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashda ikkilanish holati bo'lsa, Prezidentimiz Sh Mirziyoyev ning BMTning 72-sessiyasida jahon minbarida turib "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinning asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi" deb aytgan so'zlari ma'naviy tarixni o'rganishda madad baxsh etdi. Darhaqiqat tarixni o'rganmasdan turib kelajakka tamal toshni qo'yib bo'lmaydi. O'tmish ajdodlarimiz merosini

o'rganib uni bugungi kun globalashuv jarayoniga olib kirib, hayotga tadbqiq qilish Vatan taraqqiyoti uchun biz yoshlar tomonidan qo'shgan hissamiz bo'lsa ne ajab! Shu maqsaddan kelib chiqib komil inson ta'limotining tasavvufdagi nazariy asosini o'rganib, uni ta'lim – tarbiyada qo'llash metodikasini yaratishdir.

Tasavvuf ta'limotida komil inson - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloh ruhga tutash qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot. Prof. Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida yozishicha komil inson tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib, munozaralarga sabab bo'lgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Sayid Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning "Insoni komil" nomli risolalaridir. Komil inson tushunchasini birinchi marta Muh'yiddin Ibnal Arabiy (1165 - 1240) tomonidan muomalaga kiritilgan. Uning fikri cha komil insonning yerdagi timsoli Hazrat payg'ambarimiz Muhammad salollohu vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi.

Shayx Aziziddin Nasafiyni komil inson ilmining nazariyot chisi deyish mumkin, chunki uning barcha asarlarida bu mavzu markaziy o'rinni ishg'ol etadi. Alloma inson kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib olgan. Buning biri – hamida axloq bo'lsa, ikkinchisi – o'z-o'zini tanish.

Professor N. Komilov "Aziziddin Nasafiyni komil inson tadqiqotchisi deyish mumkin, chunki uning barcha risolalarida inson hilqati, uning este'dodi va nuqsonlari, insonni kamol toptirish omillari o'rganildi so'fiyona va ilmiy ifodalandi"²⁴ deydi.

Aziziddin ibn Muhammad an-Nasafiy-shoir tasavvuf falsafasining yirik vakili. Shayx Najmiddin kubro ta'limoti va Muhyiddin ibn Arabiy tariqatini o'zaro bog'lagan kubraviya mashoyihlaridan biri. Dastlab Nasaf, so'ng Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Asosan, falsafa va hikmatni o'rgangan, tib ilmida ham yuksak mahoratga ega bo'lgan. Aziziddin Nasafiy 1243-1251 yillar Xurosonda yetuk oriflardan bo'mish Sa'diddin Hamaviy (Hamuya 1191-1252) bilan tanishish natijasida tasavvuf yo'liga kirgan.

²⁴ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Yozuvchi, 1996.

Fors tilida ijod qilgan. "Insoni komil" asari Aziziddin Nasafiy risolalarining majmuasi ham deb yuritiladi. 1-bob muqadima va turli mavzularga bag'ishlangan 2-risoladan iborat. Shuningdek, "Zubdat-ul haqoyiq" ("Xaqiqatlar qaymog'i"), "Usul va furu'" ("Ildizlar va butoqlar"), "Mabda' va ma'od" ("Asl makon va (unga) qaytish"), "Miftoq ul-asror" ("Sirlar kaliti"), "Nafsi insoniy", "Vahdali vujud" va boshqa kitoblari chet ellarda chop etilgan. Olam va odam birligi ta'limoti Aziziddin Nasafiy asarlarining mohiyatini tashkil etadi.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatga yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unga quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq, va maorif".²⁵

Jumladan, Aziziddin Nasafiyning pedagogik merosi alohida o'rganilishi tasavvuf ta'limoti va pedagogika tarixi o'zaro bog'liqligi insonni kompleks tadqiqotiga yangi yo'nalish ochgan bo'ladi. N. Komilov ta'kidlaganidek: "XIII asr Sharq xalqlari ma'naviyati va tafakkuri tarixida alohida o'rin egallaydi. Bu davrga kelib, kalom ilmi, falsafa va tasavvuf kamol topdi. Natijada har uchalla sohani birlashtirgan ajoyib olimlar va mutafakkir adiblar yetishib chiqdi. Ana shunday mutafakkirlardan biri atoqli vatandoshimiz Aziziddin ibn Muhammad an Nasafiydir". Aziziddin Nasafiyning "Kashful haqoyiq" (Haqiqatlarni ochilishi), "Zubdatul haqoyiq" (Haqiqatlar qaymog'i). Bu kitoblarda Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlar omuxta etilgan tasavvuf va falsafani qo'shib, komil inson ta'limotining rivojlanish bosqichlari o'z ifodasini topgan.

Prof. N. Komilov "Tasavvuf"²⁶ kitobida yozganidek: "Nasafiy islomdagi bir nechta ilmning insonga bo'lgan qarashlari munosabatini chog'ishtiradi, insonni kayhoniy vujud sifatida ham, yer mahluqoti sifatida ham tahqiq va tadqiq etadi. Nasafiyda komil inson ruh tushunchasi bilan zid aloqada tekshiriladi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida olib qoraladi".

²⁵ Aziziddin Nasafiy. Zubdat-ul haqoyiq. – T.: Mehnat, 2001.

²⁶ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Yozuvchi, 1996.

Aziziddin Nasafiy komillikka erishining asosiy yo'laridan biri ham inson o'zligini anglashi deb biladi. U kitobxonga murojat qilib "Ey piri darvesh hamma bir narsaga iqrordir. Kimki o'zini anglagan, o'zini tanigan bo'lsa Rabbini anglaydi va taniydi. O'zini tanigan kishi ulug' olam (olam kabr)ni ham anglaydi: - shuning uchun barcha kuchni o'z-o'zini anglashga sarflash lozim"deb yozadi dedi.

Mutafakkir "Komil inson" asarida shunday yozadi: "Ey darvesh! Daraxtning barcha kamolot bosqichlari urug'idadir. Faqat mirishkor bog'bonning tarbiyati va parvarishi lozimdir, toki urug' daraxt bo'lib, ro'yobga chiqsin. Shu kabi poklik va go'zal axloq, ilm va ma'rifat, sir-asror kashf bo'lishi, nurlarning zuhuri - barchasi inson zotida mavjuddir. Faqat donishmand suhbat, tarbiyat va parvarishi lozimdir, toki bular to'liq yuzaga chiqsin.

Ey darvesh! Bu ish donishmandning tarbiyat va parvarishiga bog'liqdir. Donishmandning tarbiyatisiz birov biror maqomga erishishi gumon. Yovvoyi mevaning ta'mi bog'bon parvarishlagan meva ta'miga teng kelmas. Shu kabi, donishmandning suhbatini topgan solikka bunday suhatdan bebahra qolgan solik teng kelolmas."²⁷ Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rishimiz mumkinki, inson ilm olishi, uni ziyo kabi tarqatishi, komil inson shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning, pedagogning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Aziziddin Nasafiy merosidan pedagogik ta'limda foydalanishning quydagi samarali yo'llari aniqlandi:

- Komil inson g'oyasining rivojlantirilishi;
- Pedagogikaning tasavvuf bilan bog'liqligini Aziziddin Nasafiy ilmiy merosida asoslanishi;
- Aziziddin Nasafiy ilmiy merosida insonni bir butunlikda talqin etilishi;
- Aziziddin Nasafiy merosida barkamol shaxs modelining ifodalanishi;
- Komil inson shakllanish omillari va vositalari;
- Bo'lajak pedagoglarda tarixiy tafakkurni shakllantirish.

²⁷ Aziziddin Nasafiy "Insoni Komil" internet manba asosida